

IMOM AL-BUXORIY

IMAM AL-BUKHARI

ИМАМ АЛЬ-БУХАРИ

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Maxmudov Abduxalil Ma'sudovch

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali telekamunekatsiya texnologiyalari

kasb ta'lim fakulteti talabasi

Telefon raqam +998 94 638 66 04

Elektron pochta manzili: mwkendjxkkd@gmail.com

Annotsiya:

Ushbu maqolada Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim al Buxoriy) xaqida taxlil qilingan bulib , islom olamiga qilgan xizmatlari, ilmiy, manaviy , axloqiy va ta'limga qilgan xizmatlari xaqida batafsil yoritib beramiz.

Kalit suzlar : xayoti , taffakuri, ta'lim ,xalq, islom, marifat.

Buxoriy, Imom al-Buxoriy(asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy) (810.21.7,Buxaro-870.31.8, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'i)- islom olamining yirik mutafakkiri. Muxaddislar imomi, hadis ilmining sultonini deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muxaddislaridan, Malik ibn Asalning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'llangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi bilan onasi shug'ilangan.U 5-6 yoshida islomiy ilimlarni, Muxammadning hadislarini o'rghanishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqmasdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan kiyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Axmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxaroga

qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827-yil Madinaga mashhur ulomalardan Ibroxim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqatda bulib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtida Rasulullohning sahabalari, sahabalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammadning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. SHom va Misirga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaxarlardagi olimlardan saboq oladi va hadislar to'pladi.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani "AL-jome as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: "Al-jome as-sahih", "At-tarix as-sag'ir", "AT-tarix al-avsat", "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kabir", "At-tafsir al-kabir" "Birrul volidayn", "Asmo as-sahoba", "Kunyalar" va boshqalar. Ular orasidagi "Al-jome as-sahih" asari islom olamida Qur'onidan keyingi eng muhim manba sifatida e'zozlanuvchi manba hisoblanadi.

Imom Buxoriyning hadislar to'plash borasidagi quygan shartlari boshqa muxaddislarning qo'ygan shartlaridan ko'ra aniqroq bo'lgani sababli "Al-jome as-sahih" asari "Eng ishonchli hadislar to'plagan" nomiga sazovor bo'lgan. Muhaddislar hadislarning roviylarini o'zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bulsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarning roviylari o'zaro uchrashganni alaohoda ko'rgan guvohning e'tirofini ham shart qilib qo'ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al- Asqaloning hisobiga ko'ra "al-jome as-sahih" dagi hadislarning soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qushilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi.

Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX-XII asrda ko'plab hadisshunoslik maktablari shakillandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan kuplab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy

yurtlardagi safardan kiyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan "Kitob al-favoid" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jome al-kabiyr" ("Katta tayanch "), "xalq af'ol alibod" ,("Alloh bandalari ishlarining tabiatni"), "Al-Musnad al-kabiyr" ("KATTA TAYANCH") "At- tafsir al-kabiyr" bizgacha yitib kelmagan, ba'zilari jahoning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida malumotlar bor.¹

IMOM AL-BUXORIYNING HADIS ILMI TARAQQIYOTIGA QUSHGAN HISSASI

Yurtimizda yashab ijod qilgan buyuk alloma va mutafakkir bebahta ilmiy-manaviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fonlarida saqlanayotganlar qulyozmalarining elektron nusxalarni to'plab, xalqimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti marxum Islom Karimov shunday degan edi: "Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islam madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sulton" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'l mish eng ishonchli hadislar to'plami - "AL-Jome as-sahih" kitobi islam dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqqadas manba bulib , ahli islam e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana , o'n ikki asrdirki, bu kitob milonlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'liga chorlab kelmoqda .

Imom al-Buxoriy Islam olami va muhaddislar orasida "Imom ul-Muhaddisiyn" (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning "Al- Jomi as-sahih" (ishonarli to'plam) asari haqida so'z karimdan ketganda shuni aytish mumkinki, maskur manba islam dini talimotida qur'oni keyin asosiy manba sifatida foydalilaniladi. Imom al- Buxoriy yashagan davrdan oldin ta'lif etilgan hadis kitoblarida sahih va g'ayri sahih hadislar aralash

¹<https://uz.vm.wikipedia.org>



holda berilgan bulib , o'quvchi ulardagi biror hadisni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining axvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi. Buning uchun o'quvchi o'sha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulomolardan so'rashga majbur bo'lardi.²

"Mana shunday og'ir davrda Imom al-Buxoriy "Al-Jomi' as-Sahih" kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahil hadislarni boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi.

Imom al-Buxoriyning "Al-Jomi' as-Sahih" kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, "Fathul-Boriy", "Al-Kavkab ad-Daroriy", "Irshodus-Sariy", "Umdat al-Qoriy", "Fayzul Boriy" va boshqa ko'plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Imom al Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" (Odob durdonalari), "Birr ul-Volidayn" (Ota-onani hurmat qilish), "At-Tarix al-Kabir" (Katta tarix), "At-Tarix al-Avsat" (O'rtacha tarix), "At-Tarix as-Sag'iyr" (Kichik tarix), "Al-Jome' al-Kabir" (Katta hadislar to'plami), "Kitab al-Ilal" (Nuqsonli hadislar kitobi), "Kitab al-Kunya" (Hadis roviylarining taxalluslari) kabi yigirmadan ortiq asarlarlari mavjud.Imom Buxoriyning ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas'uliyatini his etadi".

Demak, hadislar mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib

² Din ishlari buyicha kumita <https://religions>



hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzARB vazifalaridan sanaladi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — movarounnahrlik alloma, muhaddis olim Imom Buxoriy hamda O‘zbekiston va musulmon dunyosidan yetishib chiqqan mutafakkir va allomalarning ilmiy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo‘shgan hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ‘ib qilish, kelgusi avlodni millatlar va dinlararo bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadrlash va mustahkamlash ruhida tarbiyalash, shuningdek, xalqaro miqyosdagi ma’naviy-ma’rifiy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishdan ibor Naqshbandiya Bahouddin Naqshband hayotligidayoq keng shuhrat qozondi. Naqshbandiyani nazariy jihatdan ishlab chiqishda Muhammad Porso, Alouddin Attor xizmatlari katta bo‘ldi. Bu tariqatga faqatgina oddiy xalq emas, balki Buxoro va Samarcand ulamolari, Amir Temur avlodidan bo‘lgan shoh va shahzodalar kira boshladilar. XV asrdayoq Naqshbandiya Eron, Afg‘oniston, Misr, Hijoz, Shimoliy Kavkaz, Turkiyaga tarqala boshladi. Ayniqsa, "hazrati Eshon" unvoniga musharraf bo‘lgan Xoja Axror valiy — Nosiriddin Ubaydulloh faoliyati tufayli Naqshbandiyaning obro‘-e’tibori yana ham oshdi. Bahouddin Naqshband zamonida mansabdor shaxslar, shox-u amirlardan uzoq turish lozim deyilgan bo‘lsa, Xoja Ahror valiy davrida Naqshbandiya siyosiy doiralarga kirib bordi. Naqshbandiya XVI asrda Hindistonga tarqaldi. Bunda Bobo valiy, Xoja Boqibilloh (1563—1603), Axmad Sirhindiy (1564—1624) faoliyati yaxshi samara bergen. Ayniqsa, Ahmad Sirhindiy u yerda sunniylik yo‘nalishini mustahkamlash uchun Naqshbandiyadan unumli foydalangan. Naqshbandiyani Turkiyada yoyilishida Mulla Abdulloh Simaviy (1490-yilda vafot etgan), Ahmad Buxoriy va boshqa shaxslarning xizmati bor. Naqshbandiya XVI—XVII asrlarda Misr va Hijozga (Arabistonga) kirib boradi. Eronning Nishapur, Isfahon, Yazd shaharlariga tarqalib, shular orqali Falastin, Iraq, Iordaniyada ko‘plab tarafdarlarga ega bo‘lgan. Hindiston orqali u Indoneziya, Malayziya, Seylonga tarqaldi. Keyingi asrlarda Rossiya, Bosniya va boshqa Yevropa mamlakatlariga yoyilgan. Hozirda AQSH, Kanada, Avstriyada Naqshbandiya markazlari, xonaqolari, jamg‘armalari bor. Naqishbadiya taraqiyotining umuminsoniy g’oyalari, ma’naviy kamolat, botiniy poklikni targ‘ib etishi uning dunyoda keng tarqalishiga olib keladi. Uning muxlislari bir necha milion kishini tashkil qiladi³.

³Al-Adab al-Mufrad (Adab durdonalari), t., 1990;





Bu mavzudan shunday xulosa qilamiz Imom Buxoriyning fikr-mulohazalari, tarixiy va falsafiy mavzularda yozgan asarlarida boy beradi. Uning kitoblari, Islom ilmi, hadis uslubi, etika, ilm-falsafa, riyozat va shaxsiy rivojlantirish kabi ko'plab mavzularda yozilgan. Uning yozuvlarida tarixiy faktlar, hadislar, o'zbekistonlik ravishda ma'lum bo'lgan ko'plab odatlar va adabiyotlar kabi qaynoqlar mavjud. Imom Buxoriyning asarlarida Islom dinining asosiy qoidalari, odob-ahloq masalalari, oila muammolari, ijtimoiy adolat va ravnaqarlik, ilm va o'qitish metodikasi, insoniyatning ma'nosi va boshqalar kabi muhim mavzular muhokama qilinadi. Imom Buxoriyning yozuvlari dunyoda birinchi darajada qadr qilingan va uning fikrlari, Islom ulamolarining rivojlanishiga katta ta'sir qilgan. Uning yozuvlari hozir ham ilmiy tadqiqotlar uchun mukammal manba sifatida qaralib turadi. Bu xulosa, Imom Buxoriyning islomiy ilm, hadis va falsafa sohasida katta o'rni va ahamiyati bor. Uning yozuvlari ilm-falsafa, etika va odob-ahloq masalalariga oid muhim manbalardan hisoblanadi va hozir ham ilmiy tadqiqotlar uchun qadr qilingan.

FOYDALANILGAAAN ADABIYOTLAR

1. Din ishlari buyicha kumita <https://religions>
2. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, T., 1998;
3. Ma'naviyat yulduzlari [2-nashri] t., 2001. Ubaydulla Uvatov.
4. <https://uz.vm.wikipedia.org>
5. Al-Adab al-Mufrad (Adab durdonalari), t., 1990;
6. Hadis [Al-Jome as-sahih], 1-4 j. lar (2-nashr), t., 19972.
7. Imom alBuxoriy - muhadislар sultonи [nashrga taylorlovchilar Usmonhoji Temurxon o'g'li, Baxtiyor Nabixon o'g'li], t., 1998
8. Islom ensiklopediyasida.

ILMIY MAQOLALAR

- 1 Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
- 2 Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
- 3 Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
- 4 Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
- 5 Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
- 6 Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
- 7 Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
- 8 Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
- 9 Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.